QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2021- YIL YANVAR-IYUL*
*(DASTLABKI MA'LUMOT)*

Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: (75)-221-32-36

# Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10259,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 122,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (64,0 %) ni tashkil etdi.







*B-Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat, **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oshishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 80,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 14,8 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 11,2 % ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 1,8 % ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1120,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da**







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Tabiiy qumlar**




**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Propan, Butan**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy qum, ming t. | 59,7 | 59,6 | -0,1 |
| Neft, ming t. | 16,2 | 16,7 | 0,5 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1470,4 | 838,3 | -632,1 |
| Gaz kondensati, ming t. | 166,4 | 89,7 | -76,7 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 98,7 | 37,1 | -61,6 |
| Propan va butan, ming t. | 85,9 | 81,5 | -4,4 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6565,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 64,0 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 21,2 % (31,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,3 % (5,2 %) va quyi texnologiyalisi – 40,5 % (62,8 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 3,4 marta), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,2 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,0 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi – 2,5 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,2 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,7 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,1 % (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 77,7 ming tonna paxta chigiti (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 166,4 %), 53,4 ming tonna paxta tolasi (182,8 %), 8,5 ming tonna Mel (110,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Paxta chigiti**




**Paxta tolasi**




**Paxta linti**




**Kaliy xlorid**




**Asfaltli aralashmalar**




**Oltingugurt**




**Og‘irligi 0,94 kam bo‘lmagan polietilen**




**Kalava ip**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 80,2 ming tonna ogʻirligi 0,94 dan kam boʻlmagan polietilen (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 102,0 % ga oshgan), 18,6 ming tonna paxtadan yigirilgan ip (106,9 %), 1,3 ming tonna polotno (121,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori oʻsish sur'atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ogʻirligi 0,94 dan kam boʻlmagan polietilen, ming t.** | 78,7 | 80,2 | 1,5 |
| **Asfaltli aralashmalar, ming t.** | 5,9 | 22,9 | 17,0 |
| **Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, ming t.** | 89,7 | 86,0 | -3,7 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 21,7 | 53,4 | 31,7 |
| **Oʻsimlik yogʻi (tozalangan), ming t.** | 5,2 | 1,6 | -3,6 |
| **Kaliy xlorid, ming t.** | 118,8 | 110,4 | -8,4 |
| **Plastmassa quvurlar, ming t.** | 3,0 | 2,1 | -0,9 |
| **Ip kalava, ming t.** | 17,4 | 18,6 | 1,2 |
| **Oltin gugurt, ming t.** | 0,6 | 0,6 | 0,0 |

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 51,2 % ga pasaygan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % gacha koʻtarilib, fizik hajm indeksi esa, 3,4 martaga oʻsdi va ishlab chiqarish hajmi 47,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,5 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 142,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,3 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 1404,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 132,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,1 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 50,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 104,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,2 % ni, fizik hajm indeksi 29,0 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2378,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI**
***% da***




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*




**FHI**
***% da***




2020- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 93,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % fizik hajm indeksi 96,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 254,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 38,5 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,1 % ni, fizik hajm indeksi 112,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2164,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyul oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 25,1 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 2,7 martaga o‘sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 8,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2494,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (24,3 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 80,8 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 5548,0 | 7841,5 | 2293,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1827,2 | 1787,5 | -39,7 |

# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 0,4 | 6,7 | 6,3 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 18,1 | 29,9 | 11,8 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 165,0 % ga shuningdek, oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 18,3 martaga o‘sishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2110,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,4 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,7 % (2020- yil yanvar-iyul oylarida 3,5 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,4 % ni, shuningdek, Chiroqchi tumani 13,3 % ni, Shahrisabz tumani 8,0 % ni, Yakkabog' tumanida 7,8 % ni hamda Koson tumani 7,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatda o'sish sur'ati (100,4 %) darajasidan ko'p Shahrisabz tumani (113,3 %), Muborak tumani (112,4 %), Qamashi tumani (110,3 %) va Qarshi tumanida (106,7 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 2110,1 | 100,0 | 100,4 |
| Qarshi sh. | 535,4 | 25,4 | 98,0 |
| Shahrisabz sh. | 140,2 | 6,6 | 96,6 |
| G‘uzor | 53,4 | 2,5 | 97,5 |
| Dehqonobod | 39,2 | 1,9 | 100,7 |
| Qamashi | 82,2 | 3,9 | 110,3 |
| Qarshi | 113,8 | 5,4 | 106,4 |
| Koson | 162,0 | 7,7 | 94,2 |
| Kitob | 114,3 | 5,4 | 103,7 |
| Mirishkor | 76,1 | 3,6 | 99,2 |
| Muborak | 41,2 | 2,0 | 112,4 |
| Nishon | 93,9 | 4,4 | 104,3 |
| Kasbi | 42,7 | 2,0 | 92,5 |
| Chiroqchi | 280,4 | 13,3 | 100,1 |
| Shahrisabz | 169,4 | 8,0 | 113,3 |
| Yakkabog‘ | 165,0 | 7,8 | 95,3 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib 23,9 % shuningdek, Chiroqchi tumani 14,8 %, Shahrisabz tumani 7,9 % ni, hamda Koson tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining oʻsish surʼatida yuqori koʻrsatkich Muborak (121,2 %), Shahrisabz (114,3 %), Qamashi (110,6 %) hamda Nishon (110,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar boʻyicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va oʻsish surʼati**

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida*

| | Mlrd. soʻm | Ulushi % da | Oʻsishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 837,2 | 100,0 | 104,6 |
| Qarshi sh. | 200,2 | 23,9 | 106,2 |
| Shahrisabz sh. | 46,5 | 5,6 | 99,9 |
| Gʻuzor | 23,0 | 2,7 | 96,9 |
| Dehqonobod | 18,0 | 2,2 | 102,2 |
| Qamashi | 36,1 | 4,3 | 110,6 |
| Qarshi | 47,2 | 5,6 | 106,0 |
| Koson | 60,9 | 7,3 | 108,9 |
| Kitob | 48,4 | 5,8 | 108,0 |
| Mirishkor | 31,4 | 3,8 | 98,8 |
| Muborak | 18,1 | 2,2 | 121,2 |
| Nishon | 42,3 | 5,0 | 110,4 |
| Kasbi | 18,2 | 2,2 | 93,6 |
| Chiroqchi | 123,6 | 14,8 | 100,6 |
| Shahrisabz | 66,2 | 7,9 | 114,3 |
| Yakkabogʻ | 57,2 | 6,8 | 94,2 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga toʻgʻri kelib, 26,3 % ni, shuningdek, Chiroqchi tumani 12,3 % ni, Shahrisabz tumani esa 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Shahrisabz tumani (112,6 %), Yakkabog‘ (112,4 %) Qamashi (110,1 %), Qarshi (106,8 %) hamda Muborak (106,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 1272,9 | 100,0 | 98,1 |
| Qarshi sh. | 335,2 | 26,3 | 93,5 |
| Shahrisabz sh. | 93,8 | 7,4 | 94,5 |
| G‘uzor | 30,4 | 2,4 | 97,9 |
| Dehqonobod | 21,2 | 1,7 | 99,4 |
| Qamashi | 46,7 | 3,7 | 110,1 |
| Qarshi | 66,6 | 5,2 | 106,8 |
| Koson | 101,1 | 7,9 | 87,1 |
| Kitob | 66,0 | 5,2 | 100,8 |
| Mirishkor | 44,7 | 3,5 | 99,6 |
| Muborak | 23,1 | 1,8 | 106,3 |
| Nishon | 51,6 | 4,1 | 99,9 |
| Kasbi | 24,5 | 1,9 | 91,6 |
| Chiroqchi | 156,9 | 12,3 | 99,8 |
| Shahrisabz | 103,3 | 8,1 | 112,6 |
| Yakkabog‘ | 107,8 | 8,5 | 112,4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1568,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 10259,9 | 100,0 | 122,0 |
| Qarshi sh. | 1471,3 | 14,3 | 118,2 |
| Shahrisabz sh. | 165,5 | 1,6 | 105,9 |
| G‘uzor | 2046,2 | 19,9 | 116,5 |
| Dehqonobod | 316,8 | 3,1 | 101,9 |
| Qamashi | 223,3 | 2,2 | 105,7 |
| Qarshi | 627,4 | 6,1 | 130,3 |
| Koson | 469,8 | 4,6 | 101,6 |
| Kitob | 149,4 | 1,5 | 103,0 |
| Mirishkor | 266,8 | 2,6 | 133,1 |
| Muborak | 264,5 | 2,6 | 71,5 |
| Nishon | 2672,8 | 26,1 | 170,5 |
| Kasbi | 754,6 | 7,4 | 210,2 |
| Chiroqchi | 339,3 | 3,3 | 107,0 |
| Shahrisabz | 207,8 | 2,0 | 98,7 |
| Yakkabog‘ | 284,5 | 2,8 | 102,2 |

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati *% da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,1 martaga), Nishon (170,5 %), Mirishkor (133,1 %), Qarshi (130,3 %), Qarshi sh. (118,2 %) va G‘uzor (116,5 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nishon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,1 % i) hamda G‘uzor (19,9 %), Qarshi sh. (14,3 %), Kasbi (7,4 %) va Qarshi (6,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Kitob (1,5 %) hamda Shahrisabz shahriga (1,6 %) to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (17 100,5 ming so‘m), G‘uzor (9 804,3 ming so‘m), Qarshi shahrida (5 265,8 ming so‘m) hamda Kasbi (3 761,7 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 062,2 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | Istemol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 3 062,2 | 629,8 |
| Qarshi sh. | 5 265,8 | 1 916,2 |
| Shahrisabz sh. | 1 173,7 | 994,7 |
| G‘uzor | 9 804,3 | 255,9 |
| Dehqonobod | 2 104,9 | 260,7 |
| Qamashi | 809,6 | 300,3 |
| Qarshi | 2 469,1 | 447,8 |
| Koson | 1 608,5 | 554,7 |
| Kitob | 558,7 | 427,6 |
| Mirishkor | 2 187,0 | 623,9 |
| Muborak | 2 981,4 | 464,9 |
| Nishon | 17 100,5 | 600,7 |
| Kasbi | 3 761,7 | 213,1 |
| Chiroqchi | 803,4 | 664,1 |
| Shahrisabz | 925,6 | 754,7 |
| Yakkabog‘ | 1 065,3 | 617,7 |

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 629,8 ming so‘m bo‘lgani holda, Qarshi sh. – 1 916,2 ming so‘mni, Shahrisabz sh. – 994,7 ming so‘mni, Shahrisabz tumanida – 754,7 ming so‘mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2021- yilning yanvar-iyul oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 263,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 97,9 %), Chiroqchi (84,8 %), Yakkabog‘ (84,0 %), Shahrisabz (81,5 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (79,4 %) kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nishon (4,1 %), G‘uzor (4,6 %), Kasbi (5,8 %) va Dehqonobod (13,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- avgust holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4680 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 876 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,7 % i) Qarshi shahriga, 518 tasi (11,0 %) Kitob tumaniga, 431 tasi (9,2 %) Yakkabog‘ tumaniga, 403 tasi (8,6 %) Chiroqchi tumaniga, 363 tasi (7,7 %) Shahrisabz shahriga, 330 tasi (7,0 %) Qarshi tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 1038 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 180 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,3 %) Qarshi shahrida, 92 tasi (8,9 %) Yakkabog‘ tumanida, 91 tasi (8,8 %) Chiroqchi tumanida, 90 tasi (8,7 %) G‘uzor tumanlarida tashkil etildi.